

# Demografik holat


(dastlabki ma'lumotlar)

**Doimiy aholi soni.** Andijon viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 iyul holatiga 3032,3 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyun oylarida yil boshiga nisbatan 20,6 ming kishiga yoki 0,6 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1586,5 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 52,3 %), qishloq aholisi soni 1445,7 ming kishini (47,7 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:  
2018 yil yanvar-mart


- Aholi soni **20,6 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **29,0 ming nafarni** tashkil etdi.
- 7,6 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlariда **9,1 mingta nikoh** va **2,0 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Andijon viloyati aholisining umumiyo'sishi (2018 yil yanvar-iyun oylarida)




## Demografik holat

### Andijon viloyat kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 iyul holatiga, respublika jami aholisiga nisbatan, %da)



Andijon viloyat kesimida tahlillar shuni ko'ssatmoqdaki, 2018 yil 1 iyun holatiga eng ko'p aholi soni Andijon shahrida 430,1 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,1 %ni) va Asaka tumanida 315,4 ming kishini (10,4 %), aksincha eng kam aholi soni Xonobod shahrida 41,3 ming kishini (1,4 %) va Ulug'nor tumanida 57,5 ming kishi (1,9 %) tashkil etdi.

Tumanlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Andijon shahri 14,2 %ga, Asaka tumanida 10,4 %ga, Shaxrixon tumanida 9,5 % ga, aksincha eng kam o'sish sur'ati Xonobod shahrida 1,4 %ni, Ulug'nor tumanida 1,9 % ni tashkil etdi.



## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 29,0 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 19,3 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega kamaygan (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 19,4 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan keskin o'sishi Qo'rg'ontepa tumanida (17,9 promilledan 19,2 promillega) va Buloqboshi tumanida (17,0 promilledan 17,7 promillega), Marxamat tumanida (19,4 promilledan 19,9 promillega) kuzatildi, kamayish holatlari esa aksincha Bo'z tumani (21,1 promilledan 17,9 promillega), Xonobod shahrida (18,2 promilledan 15,9 promillega) kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yisi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

### Andijon viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi Yanvar-iyun

	2017 y.		2018 y.	
	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille
<b>Andijon viloyati</b>	<b>28594</b>	<b>19,4</b>	28971	19,3
Andijon sh.	4168	19,9	4269	20,1
Xonobod sh. tumanlar:	367	18,2	325	15,9
Oltinko'l	1686	20,3	1680	19,9
Andijon	2491	20,3	2547	20,4
Baliqchi	1759	18,7	1710	17,9
Bo'z	714	21,1	616	17,9
Buloqboshi	1139	17,0	1209	17,7
Jalaquduq	1578	18,0	1641	18,4
Izboskan	2210	19,9	2163	19,1
Ulug'nor	498	17,8	474	16,7
Qo'rg'ontepa	1812	17,9	1980	19,2
Asaka	2966	19,4	3033	19,5
Marxamat	1572	19,4	1642	19,9
Shaxrihon	2815	20,1	2907	20,4
Paxtabod	1826	20,2	1756	19,1
Xo'jaobod	993	19,3	1019	19,5

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2018 yil 2-chorakda 7,6 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 5,1 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan -0,4 promillega kamaygan (2017 yilda 5,5 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Xonobod shahrida (5,0 promilledan 4,1 promillega), Izboskan tumanida (6,2 promilledan 5,4 promillega) va Jalaquduq tumanida (5,6 promilledan 4,9 promillega) kamaydi,

### **Andijon viloyati bo'yicha vafot etganlar soni, kishi Yanvar-iyun**

#### **tumanlar bo'yicha o'lanchalar soni**

	2017 y.		2018 y.	
	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille
<b>Andijon viloyati</b>	<b>8072</b>	<b>5,5</b>	<b>7586,0</b>	<b>5,1</b>
Andijon sh.	1199	5,7	1165,0	5,5
Xonobod sh. tumanlar:	100	5,0	83,0	4,1
Oltinko'l	441	5,3	411,0	4,9
Andijon	708	5,8	650,0	5,2
Baliqchi	482	5,1	459,0	4,8
Bo'z	181	5,4	193,0	5,6
Buloqboshi	358	5,3	321,0	4,7
Jalaquduq	488	5,6	435,0	4,9
Izboskan	690	6,2	606,0	5,4
Ulug'nor	126	4,5	134,0	4,7
Qo'rg'ontep'a	509	5,0	498,0	4,8
Asaka	851	5,6	765,0	4,9
Marxamat	447	5,5	429,0	5,2
Shaxrihon	710	5,1	678,0	4,8
Paxtabod	477	5,3	448,0	4,9
Xo'jaobod	305	5,9	311,0	5,9


## Demografik holat

2018 yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 67,7 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,2 %i o'simtalardan, 4,7 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,2%i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 2,5 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,5 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 12,2 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 485 ta nafarni tashkil etib, ularning 69,1 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 17,1%i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 4,9 %i tug'ma anomaliyalardan, 1,9 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan, 0,4%i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari va 6,6%i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi

(jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



### 2018 yil yanvar-iyun

**Tabiiy o'sish.** 2018 yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 21,4 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 0,9 ming kishiga (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 20,5 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:  
21,4 ming kishi

## Demografik holat

**Nikoh.** 2018 yil yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 9,1 mingta nikoh qayd etildi. Andijon viloyati bo'yicha 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,1 promilleni tashkil etmoqda.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Xonobod shahri (173,5 %), Jalaquduq tumanida (143,7 %) va Xo'jaobod (141,6 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

**Nikohdan ajralishlar.** 2018 yilda FHDYO organlari tomonidan 2,0 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,3 promilleni tashkil etdi

Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Shaxrixon tumanida (175,0 %), Ulug'nor (150,0 %), Jalaquduq (139,0 %) va Oltinko'l (134,1 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



### Andijon viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik Yanvar-mart

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2017 y.	2018 y.	2017 y.	2018 y.
<b>Andijon viloyati</b>	<b>7728</b>	<b>9118</b>	<b>1633</b>	<b>1973</b>
Andijon sh.	1012	1271	268	319
Xonabod sh. tumanlar:	68	118	31	41
Oltinko'l	392	508	91	122
Andijon	482	625	136	177
Baliqch	554	517	87	94
Bo'z	155	133	35	36
Buloqboshi	405	398	86	100
Jalaquduq	382	549	77	107
Izboskan	720	939	141	166
Ulug'nor	97	131	18	27
Qo'rg'ontep'a	577	596	100	118
Asaka	845	933	172	196
Marxamat	467	470	142	133
Shaxrihon	726	899	96	168
Paxtabod	613	701	93	112
Xo'jaobod	233	330	60	57

## Demografik holat

**Migratsiya.** 2018 yilning yanvar-iyun davrida Andijon viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3,5 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 4,3 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus -0,8 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,3 ming kishiga ko'paygan.

### Aholi migratsiyasi, ming kishi

	2017 y. yanvar-iyun	2018 y. yanvar-iyun
<b>Ko'chib kelganlar</b>	3,3	3,5
<b>Ko'chib ketganlar</b>	4,4	4,3
<b>Migratsiya saldosi</b>	-1,1	-0,8

**Ko'chib kelganlar:** Ko'chib ketganlarning nisbatan yuqori darajasi Andijon shahri (0,8 ming kishi), Andijon tumani (0,9 ming kishi), Izboskan (0,3 ming kishi) Asaka (0,4 ming kishi) va Qorgontepa (0,2 ming kishi) tumanlarida qayd etildi

**Ko'chib ketganlar:** Ko'chib ketganlarning nisbatan eng yuqori soni Andijon shahri (1,1 ming kishi), Andijon tumani (0,5 ming kishi), Shaxrixon (0,3 ming kishi) Jalaquduq (0,2 ming kishi) va Qorgontepa (0,3 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

**Migratsion saldo:** Migratsiya saldosining yuqori darajasi Andijon shahri (minus 0,4 ming kishi), Shaxrihon (minus 0,3 ming kishi), Jalaquduq tumani (minus 0,2 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.